



## NAZARIY TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK SHAXS MUAMMOSI

*Muazzam Altmishbayevna Dedaxanova, Ph.D.*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola yangi lingvistik paradigmada lingvistik shaxs (til shaxsi) masalasi mavzusiga bag'ishlanadi. Nazariy va amaliy tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichida matnni avtorizatsiya qilish muammolarini nazariy va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish dolzarblik kasb etadi. Qolaversa, lingvistik shaxsga tashxis qo'yish va nazariy tilshunoslikda sifat usullariga nisbatan miqdoriy metodologiyaning o'rnini aniqlashtirish uchun matnni avtorizatsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy baholash, shuningdek, ularni qo'llash chegaralarini aniqlash lozim. Shunga ko'ra ushbu maqolada bu mavzuga e'tibor qaratildi. Tahlil davomida olingan natijalar ommaviy axborot vositalari va kibernomada nohaqlik, adolatsizlikka qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** lingvistik paradigm, lingvistik shaxs (til shaxsi), nazariy tilshunoslik, avtorizatsiya qilish, yurilingvistika, amaliy lingvistika, sud-lingvistik ekspertologiya, lingvokulturologiya, lingvodidaktika.

### **Kirish (Introduction)**

Bugungi kunda yurisprudensiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada nazariyani amaliyotga bog'lovchi tadqiqotlar maydoni jadallik bilan kengayib bormoqda. Huquqiy tilshunoslik, sud lingvistikasi, lingvistik ekspertiza kabi fanlararo ilmiy yo'nalishlarning paydo bo'lganligi buning isbotidir. Sud lingvistikasining, ayniqsa, og'zaki tamoyillariga katta e'tibor berilyapti. Xususan, A.F.Koni sud notiqligining psixologik va adabiy-badiiy usullarini tadqiq qildi. N.N.Koxtev esa notiqlikning umumiy lingvistik jihatlari: nutqning emotsionalligi, stilistikasi, muloqotning til vositalari, nutq madaniyati me'yorlari kabi masalalarni o'rgangan.

So'nggi 30 yil ichida "yurilingvistika" yo'nalishi Rossiyada jadal rivojlanmoqda. Jumladan, Barnaulda 1989, 2000, 2002-yillarda "Юрислингвистика: русский язык в его естественном и юридическом бытии" mavzusida xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Shuningdek, Rossiyada L.V.Zlatoustova "лингвокриминалистика", G.K.Potapova "юридическое речеvedение", N.D.Golev "юрислингвистика", M.V.Gorbanevskiy "лингвистическая экспертиза" va Ye.I.Kalyashina "судебная лингвистика" va "судебное речеvedение" yo'nalishlariga rahbarlik qilib, tadqiqotlar olib bordilar [5]. Bu borada bir nechta nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham himoya qilingan. O'zbekistonda ham tadqiq etilayotgan bunday yangiliklarni jahon tilshunosligiga olib chiqish maqsadida Sh.Ko'chimov tomonidan maxsus veb saytning yo'lga qo'yilganligi ham diqqatga sazovordir (<http://>



## **Metodlar (methods)**

Maqolada kuzatish, eksperiment, differensial-semantik kabi usullardan kompleks foydalanildi. Taqdim etilgan metodologiya doirasidagi ilmiy faoliyat ham individual, ham ijtimoiy, ham milliy modelni qurish yo'lida amalga oshirilishi mumkin, bu esa ancha keng qamrovli modelni shakllantirishga yordam beradi.

## **Natija va munozara (Results and Discussion)**

Ma'lumki, nazariya yordamida hal etilmaydigan amaliy muammo yo'q. Tabiiyki, amaliy va nazariy tushunchani esa fakt birlashtiradi. Har qanday nazariya mavjud faktlarni tavsiflash va, eng muhimi, tushuntirish uchun mo'ljallangan bo'lsa, amaliy tadqiqotlar, lingvistik ekspertizada, faktlarni situatsion sharhlashga qaratilgan. Shu bilan birga, muayyan vaziyatni tushuntirish hech qanday nazariyasiz amalga oshirilmaydi. "Nazariya qandaydir muammoni hal qilish uchun mo'ljallangan, muammo esa faktik xususiyatga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, nazariya haqiqat haqidagi faktlarni, bayonotlarni tushuntiradi. Shunday qilib, nazariya ishlarning haqiqiy holatini tushuntiradi. Tabiiyki, bu nazariyaning qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqligini anglatmaydi, hamma nazariyalar avtomatik ravishda qo'llanilishi mumkin emas" [1].

Nazariy va amaliy tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichi nutq faoliyatida inson omili muammosini batafsil ishlab chiqish tendentsiyasi bilan tavsiflanadi. Til sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqot antropotsentrik yondashuvga tayanadi. Yangi lingvistik paradigmada til shaxsi (lingvistik shaxs) birinchi o'ringa chiqadi.

Tilni bilishning individual tabiati haqidagi g'oyalar XVIII – XIX asrlarda V. Fon Gumboldt va J. G. Herder asarlarida yuzaga keldi. I.A.Boduen de Kurtene, C. Vosler, M. M. Baxtin va boshqa olimlarning asarlarida esa yanada rivojlantirildi [8]. Biroq "til shaxsi" atamasi birinchi marta faqat 1927-yilda J.L.Vaysgerberning "Ona tili va ruhning shakllanishi" asarida qo'llangan: "Hech kim tilni faqat o'z lisoniy shaxsi sifatida his qilmaydi; aksincha, bu til malakasi unda til jamoasiga mansublik asosida o'sib boradi..." [2, B. 81]. Ushbu konsepsiya mahalliy ilmiy leksikaga V.V.Vinogradovning "Badiiy adabiyot to'g'risida" kitobi nashr etilganidan so'ng kirdi, unda olim badiiy adabiyot misolida muallifning lingvistik shaxsi va xarakterini tasvirlash usullarini taqdim etdi [3]. Shunday qilib, rus olimlarining lingvistik shaxs fenomeniga bo'lgan dastlabki qiziqishi adabiy-badiiy nutqni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan, deya xulosa qilish mumkin. Ta'kidlash joizki, ilmiy muomalaga kiritilgan so'zning qo'llanilishi terminologik xususiyatga ega emas edi, chunki yangi tushuncha Veysgerber va Vinogradov asarlarida izohlanmagan.

"XX asrning 80-90-yillaridan boshlab, til shaxsi nazariyasining keng qamrovli rivojlanishiga erishildi va markaziy konsepsiyasining ko'plab talqinlarida ikkita asosiy yo'nalish – lingvokulturologiya hamda lingvodidaktika aniqlandi" [7]. Lingvokulturologik yondashuvga ega lingvistik shaxsni tavsiflashda "ona tilida so'zlashuvchining milliy-madaniy prototipi" tadqiqot predmeti hisoblanadi [4, B. 2-7]. Darhaqiqat, lisoniy shaxs tilda aks ettirilgan madaniyat makonida mavjud bo'lgan, xulq-atvor qoliplari va me'yorlarida, moddiy madaniyat obyektlarida, shuningdek, ijtimoiy ongning turli darajalarida namoyon bo'ladigan obyekt sifatida tushuniladi. Shunga ko'ra lisoniy shaxs individlar majmui orqali shakllanadi. Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan esa lingvistik shaxs deganda "individning tilda gavdalangan gipostazalar to'plami" tushuniladi [7, B. 75]. Lingvistik shaxsning turlari ("tabiiy" va "sun'iy" lisoniy shaxs) va kichik tiplarni ("bo'ysunish" va "surrogat" lingvistik shaxs) identifikatsiyalash bilan yangi lingvistik shaxs konsepsiyasini kashf qilishga yordam beradigan nazariy qoidalarni ishlab chiqish zarur. Bu jabrlanuvchi va ayblanuvchining modelini yaratishda uning lingvistik shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga imkon beradi. Ushbu masalani yoritishda quyidagi tushunchalar alohida



ahamiyatga ega:

1. "lingvistik shaxs" va "nutq portreti" tushunchalarini farqlash;
2. zamonaviy tipologiyalar tizimida jabrlanuvchi va ayblanuvchining lingvistik o'ziga xosligini belgilash;
3. o'rganilayotgan lingvistik shaxs turiga xos bo'lgan o'ziga xos og'zaki va noverbal xususiyatlarni aniqlash va tavsiflash [Qarang: 6];
4. faktlar bayoni va qimmatli mulohazalar, fikrlar o'rtasidagi farqni aniqlash muammosini hal qilish;
5. sha'nini himoya qilish ishlarida tilshunos-mutaxassis oldida turgan faktlar bayoni va mulohazalar o'rtasidagi tafovutni aniqlash vazifasini qayta shakllantirish;
6. ushbu toifadagi ishlar bo'yicha ekspert tadqiqotlari bilan bog'liq holda haqiqat / yolg'on tushunchasini ishlab chiqish;
7. arizachi (jabrlanuvchi yoki aslida aybdor) murojaatlarini "faktlar bayoni, baho, fikr" shkalasi bo'yicha o'rganish va ushbu bayonotlarga ekspert malakasini taklif qilish;
8. sha'nini himoya qilish holatlarida bahsli bayonot yuzasidan ekspert tahlili metodologiyasi ishlab chiqiladi va uni har xil turdagi bayonotlar ekspertizasida qo'llash imkoniyatlari asoslanadi;
9. jabrlanuvchi // ayblanuvchilar tomonidan yaratilgan og'zaki yoki yozma matnlar va ularning o'ziga xosligini belgilovchi ekstralingvistik jihatlar majmui sifatida tushuniladigan nutqning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi;
10. jabrlanuvchi // ayblanuvchi nutqida lingvistik ekspressivlik vositalaridan foydalanish va faoliyat ko'rsatishning o'ziga xosligi so'zlovchining pragmatik munosabati va uning qabul qiluvchiga ta'sirini ta'minlashdan iborat kommunikativ niyati bilan bog'liq;
11. jabrlanuvchi // ayblanuvchining lingvistik o'ziga xosligini belgilovchi asosiy alomat shaxsning muayyan ijtimoiy qatlamga mansubligidir. U tegishli bo'lgan qatlamga doir dialekt, argo, jargo, varvar, vulgar kabi chegaralangan so'zlar lingvistik shaxsni aniqlashda ancha qo'l keladi.

Bu kabi jihatlar, da'vo arizalarining haqiqiy mohiyatini ro'yirost aks ettiravermaydi, albatta, tergov jarayonlarida jiddiy surishtiruv ishlari zamirida mantiqiy tafakkur, psixolingvistik faktorlarga tayanib ish tutish ham darkor. Yuridik tilshunoslikda ekspert tadqiqotlari lingvistik nazariyalarga asoslanganligi faqat taxmin qilingan, ammo tushuntirilmagan va ekspert tadqiqotlarining o'zi lingvistik ma'lumotlar mavjudligi bilan umumiy fikrga asoslangan nazariyalar asosida qurilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, amaliy tadqiqotlar jarayonida yuzaga keladigan yoki aniqlangan barcha dolzarb vaziyatlar mavjud nazariyalar doirasida ko'rib chiqilishi kerak. Bu jihatdan qabul qilingan nazariyalarga zid bo'lgan faktlar nihoyatda ahamiyatlidir [1]. Tilning turli darajalarida (leksema, bayonot, matn darajasida) tavsiflovchi va baholovchi ma'lumotlar (obyektiv va subyektiv) nisbati bo'lgan lingvistik nazariyalar aniq fikrlash, adolatli qaror chiqarishda zaruriy yo'llanma hisoblanadi, deyish mumkin.

### **Xulosa (Conclusion)**

Huquqiy hujjatlarda adolatli qaror chiqarish o'ta mas'uliyatli va jumboqli masala. Chunki arizachining murojaatiga tayanib, darhol xulosa chiqarib bo'lmaydi. Haqiqiy aybdor "qo'rqan oldin musht ko'tarar" qabilida yo'l tutgan bo'lishi mumkin. Albatta, bunday shaxs o'z aybini ochiq-ravshan tan olib, murojaat qilmaydi. Shunga ko'ra, jabrlanuvchi aslida aybdor, ayblanuvchi esa jabrdiyda bo'lishi qaltis vaziyat. Surishtiruv ishlari hamma vaqt ham ko'zlangan natijani beravermaydi. Negaki aksariyat hollarda



ayblanuvchi o'z ishiga puxta bo'lib, ekspertiza xulosalari-yu, yolg'on guvohlar bilan masalani o'z foydasiga hal qilib qo'yadi. Natijada jabrlanuvchining gap-so'zi emas, balki soxta hujjat ishonchli, deb topiladi va shu asosda qaror chiqarishga majbur bo'linadi. Vaholanki, nohaq tuhmat, birovning sha'nini bulg'ash va yolg'on guvohlik berishning o'zi ham jinoyat. Bunday vaziyatda advokat yollamagan jabrlanuvchi beixtiyor ayblanuvchi sifatida zarar ko'rishi tabiiy. Shu bois tergov jarayonlarida, avvalo, lingvistik o'ziga xoslikni belgilovchi lingvistik shaxs muammosiga jiddiy e'tibor qaratilsa, albatta, nohaq da'volarga nisbatan chek qo'yilgan bo'lar edi.

Demak, O'zbekistonda ham amaliy lingvistik bilimlarning yangi tarmog'I – sud-lingvistik ekspertologiya yuzasidan tadqiqotlarni yo'lga qo'yish, chet davlatlarning bu boradagi tajribalarini tatbiq etishga katta ehtiyoj bor. Shunday ekan, nazariy tilshunoslik va uning asoslariga bo'lgan qiziqishni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (References):**

1. Бринев К.И. Теоритическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Автореферат: ...канд. фил. н.: 10.02.19. – 2010. (<https://www.dissercat.com/content/teoriticheskaya-lingvistika-i-sudebnaya-lingvisticheskaya-ekspertiza>).
2. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа: Пер. с нем. 2-е изд., испр. и доп. / Й. Л. Вайсгербер. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - 232 с.
3. Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы / В.В.Виноградов. - М.: Наука, 1980. - 360 с.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. - М.: Гнозис, 2004. - 390 с.
5. Материалы международной конференции. Юрислингвистика: русский язык в его естественном и юридическом бытии. – Барнаул: АГУ, 2002.
6. Мона Е.А. Языковая личность террориста (исследование на материале видеообращений членов международной террористической организации Исламское государство, запрещенной на территории Российской Федерации): автореферат кандидат наук: 10.02.19 - Теория языка. ФГБОУ ВО «Кемеровский государственный университет». – 2019.
7. Шаклеин, В. М. Лингвокультурология. Традиции и инновации / В. М. Шаклеин - М.: Флинта, 2012. - 302 с.
8. Шойсоронова, Е. С. Языковая личность: этнический аспект: на материале бурятской языковой личности: дис. ... канд. фил. н.: 10.02.19. - Улан-Удэ, 2006. - 190 с.

